

## Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish

### SHARTNOMASI

2022 yil 31 yanvar

№12-11/505-son

Nurafshon shahar

(shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi "Yuqori Chirchiq tumani Irrigatsiya bo'limi" (Iste'molchi nomi)(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari **Turovov J.B.** bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 6 yanvarda berilgan 12-11/505-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (gaz ta'minoti tashkiloti nomi)(keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari **M.R.Aliyev** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

#### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan muddatda amalga oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha yetkazib beriladigan gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 1 kub.m, narxi 660 (olti oltmish) so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

1

I chorak	12121,19	kub.m,	yanvar	3000,	fevral	3000,	mart	6121,19,
II chorak	0	kub.m,	aprel	0	may	0	iyun	0
III chorak	0	kub.m,	iyul	0	avgust	0	sentabr	0
IV chorak	0	kub.m,	oktabr	0	noyabr	0	dekabr	0

Ko'rsatib o'tilgan 2022 yil I chorak jami 12121,19 metrkub tabiiy gazning jami summasi 7 999 985,4 (yetti million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz sakson besh so'm to'rt tiyin) so'mni tashkil etadi. Yetkazib beruvchi tomondan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistrat va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi ming kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I chorak	0	mingkub.m,	yanvar	0	fevral	0	mart	0
II chorak	0	mingkub.m,	aprel	0	may	0	iyun	0
III chorak	0	mingkub.m,	iyul	0	avgust	0	sentabr	0
IV chorak	0	mingkub.m,	oktabr	0	noyabr	0	dekabr	0

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Yetkazib beruvchi tomondan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Yetkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomondan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

#### II. GAZNI ETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi yetkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yor doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgarishiga to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Yetkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

70-98-31-643

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

Yangibozor qo'rg'oni Chirchiq ko'chasi 35 uy

2.4. Yetkazib beruvchi Iste'molchini gaz yetkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistrat gaz quvurlarda yuz bergan avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2